

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg`ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqiyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

**JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINING KASBIY-PEDAGOGIK  
TAYYORGARLIGINING YETARLI DARAJADA YUQORI EMASLIGINING AYRIM  
SABABLARI**

10.53885/edinres.2022.86.49.070

Nurullayev Jasurbek Otaxon o`g`li. -O`qituvchi, UzDJTSU, Chirchiq

Muallif bilan bog`lanish uchun: [@jasurbeknurullahov999@gmail.com](mailto:@jasurbeknurullahov999@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqlolada jismoniy tarbiya sport sohasidagi mutaxasislarning pedagogik ko`nikmalari yetishmasligi va asosiy sabablari, jismoniy tarbiya darsini va mashg`ulotlarini tashkil qilishdagi bir qator pedagogik muammolar haqida so`z yuritiladi.

**Annotation:** The article discusses the main reasons for the lack of pedagogical skills of specialists in the field of physical education and sports, a number of pedagogical problems in the organization of physical education classes and classes

**Аннотация:** В статье рассматриваются основные причины недостаточного педагогического мастерства специалистов в области физической культуры и спорта, ряд педагогических проблем при организации уроков физической культуры и занятий.

**Kalit so`zlar:** jismoniy tarbiya, sport, mashg`ulot, pedagogik amaliyat, pedagogik ko`nikma, malaka, jismoniy sifatlar.

**Keywords:** physical education, sport, training, pedagogical practice, pedagogical skills, qualification, physical qualities.

**Ключевые слова:** физическое воспитание, спорт, тренировка, педагогическая практика, педагогическое мастерство, квалификация, физические качества.

**Mavzuning dolzarbliji.** Jismoniy tarbiya fakultetlaridagi o`quv jarayoniga amaliy-pedagogika fanlarini o`rganishda o`qitishning eng yangi usullari hali yetarli darajada joriy etilmagan. Shu bilan bir vaqtida borgan sari ko`proq o`qituvchilarini o`qitishning an'anaviy usullari zamon talablariga javob bermayapdi, malakali mutaxassislarini tayyorlash uchun ularning yetarli emasligi, ularni va texnikaning eng yangi yutuqlari asosida takomillashtirish zarur hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya o`qituvchisini tayyorlashda to`rtinchi kursdagagi pedagogik amaliyat eng muhim bosqichdir. Talabaning mutaxassis sifatida shakllanishi: uning o`z kuchiga va kasbni to`g`ri tanlaganiga ishonchi yo oshishi, yo unda ishonchsizlik va ikkilanishlar paydo bo`lishi ko`p jihatdan ana shu amaliyotning muvaffaqiyatlari yoki muvaffaqiyatsiz o`tishiga bog`liqdir.

**Tadqiqotning maqsadi.** Jismoniy tarbiya o`qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligining yetarli darajada yuqori emasligining ayrim sabablarini o`rganish va tahlil qilish.

**Tadqiqotning vazifalari.** Tadqiqot oldiga qo`yilgan maqsaddan kelib quyidagi vazifalarni hal etildi;

- jismoniy tarbiya o`qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligining yetarli darajada yuqori emasligining ayrim sabablar bo`yicha ilmiy - uslubiy adabiyotlarni o`rganish va tahlil qilish;
- jismoniy tarbiya o`qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligining yetarli darajada yuqori emasligining ayrim sabablarini yoritib berish.

**Tadqiqotning usublari.** Tadqiqot jarayonida, pedagogik kuzativ nazariy tahlil va umumlashtirish hamda matematik - statistik uslublardan foydalanildi.

**Tadqiqotning muhokamasi.** Jismoniy tarbiya fakulteti kasbiy tayyorgarligini yaxshilash masalasini voleybol misolida tadqiq qildi. Ushbu tadqiqotda shubhasiz qimmatli ma'lumotlar bilan birga ayrim kamchiliklar ham mavjud. Masalan, muallif kasbiy pedagogik tajribalar va ko`nikmalarining shakllanish bosqichlarini belgilarni ekan, u yoki bu bosqichda qo`yilgan vazifalarning bajarilishida qo`llanilgan usullar va uslublarni konkretlashtirmaydi.

Jismoniy tarbiy o`qituvchisi shaxsini va uni shakllanish sharoitlarini tadqiq qilishning murakkab muammosiga bag`ishlangan. Jimoniy tarbiya o`qituvchilarining ish tajribalarini o`rganish va vakolatli shaxslar o`rtasida so`rov o`tkazish asosida u tabiiy ilmiy asosda tayyorlashning ahamiyatini ta`kidlaydi va unga mazmun jihatdan qo`yiladigan talablarni belgilaydi. Jismoniy tarbiya o`qituvchilarining malakasining bo`sh tomoni ularning pedagogik va uslubiy tayyorgarligi ekanligini ko`rsatadi. Bunda juda muhim fakt qayd qilinib, aytildiki, jismoniy tarbiya o`qituvchilarini tayyorlashning mavjud tizimida kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish uchun qulay shart-sharoitlar bo`lishiga qaramay so`nggi yillarda u ko`tarilmayapti va talabalarning ancha qismi buning ahamiyatining naqadar katta va chuqurligini anglab yetmayaptilar.

Ko`p mualliflar davriy matbuot sahifalarida o`qituvchilarini tayyorlashda kasbiy yo`naltirilganligini

**Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar.** Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

yeterli darajada ifodalanmaganligini ko'rsatmoqdalar. Ularning ko'pchiligi jismoniy tarbiya o'qituvchilarining yeterli darajada yuqori kasbiy-pedagogik tayyorgarlikka ega emasliklarining bosh sababini jismoniy tarbiya fakultetlaridagi pedagogik jarayonning haddan tashqari ifodalangan sport yo'naliishiga ega ekanligidan ko'rmoqdalar. Jismoniy tarbiya fakultetlari to'laqonli jismoniy tarbiya o'qituvchisini – sportning turlaridan biri bo'yicha murabbiyni emas keng profildagi o'qituvchini tayyorlashlari lozim.

Jismoniy tarbiya oliygohlari talabalarinig gimnastika bo'limi bo'yicha kasbiy pedagogik tajriba ko'nikmalarining hajmi va shakllanishini izchilligini aniqlashga xarakat qilib ko'rgan. Talabalar o'tish davrida egallashi lozim bo'lgan tajribalar va ko'nikmalarning hammasini u amaliyotga kelgan talabaning diqqatini taqsimlash tamoyili bo'yicha ikki guruhga bo'ladi.

Ko'nikmalarning birinchi guruhiga mashqning nomini atay bilish, ko'rsata olish, buyruq va farmoyishlarni to'g'ri bera bilish va boshqalarni ya'ni o'z harakatlarga asosiy e'tiborni talab qiluvchi bilim va ko'nikmalarni kiritadi.

Amaliy va uslubiy mashg'ulotlari o'rtasidagi farq yo'qoladi, o'qitishning u yoki bu davri uchun xos bo'lgan yetakchi vazifalarni xal qilishga xalaqtiradi. Har bir mashg'ulotda ma'lum bir yetakchi topshiriq bo'lishi haqiqatan amaliyotda bor usul, pedagogik jarayon yaxlit xodisadir va talabalarini unga o'rgatganda bu jarayonni bo'lish mumkin emas. Ayrim bilim va ko'nikmalarni, ularni bir xil bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishdan boshqasiga o'ta berib, ma'lum bir ketma-ketlikda o'zlashtirishni ko'zda tutadi.

Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashga qo'yilayotgan zamонавиy talablar sharoitida o'qitish jarayonini taomillashtirilishining vazifasi o'qitishning yangi vositalari va usullarini izlashdan iboratdir. Jismoniy tarbiyada an'anaviy uslubiyat bo'yicha o'qitish esa ko'pchilik xollarda «sinov va xatolar» usulida olib borilmoqda. Bu esa kerakli samarani bermayapti.

Jismoniy tarbiya sohasidagi olimlarning katta guruhi o'qitishning qaytish orqali aniq modelining yo'qligi o'quv jarayonini boshqarishni eng past darajaga tushiradi deb hisoblaydi.

Biz tanlagan mavzu bo'yicha adabiyotlarni o'rganish asosida quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

1. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash sifatini yaxshilash davlat ahamiyatidagi ishdir.

2. Jismoniy tarbiy o'qituvchilarini tayyorlash tizimida jiddiy kamchiliklar mavjud. Kasbiy tayyorgarlik masalalari alohida e'tiborni talab qiladi.

Adabiy manbalarning taxlili pedagogik amaliyotga talabalarini kasbiy tayyorlashning amaliyotning o'zining o'rgatuvchi xarakteri (xususiyati)ni oshirish uchun zahirasi bor eng qulay bosqichi sifatida qaralayotganligini ko'rsatmoqda. Pedagogik amaliyot jarayoninida talabalarining kasbiy shakllanishi jarayoni, ya'ni nazariy bilimlarni chuqur va ongli o'zlashtirish, pedagogik bilim va ko'nikmalarning shakllanishi, ijodiy va kasbiy qobiliyatları, pedagogik funksiyalashining rivojlanishi va hokazolar foallashadi.

Shunday qilib, xalq ta'limi bo'yicha eng yangi qarorlarning, shuningdek yektakchi pedagog olimlarining asarlarining taxlili maksimal tizimda o'qituvchi kadrlarni tayyorlash sifatini ko'tarish davlat ahamiyatidagi masala ekanligini va malakali kadrlar tayyorlashning ko'pgina jihatlari xanuzgacha yeterli darajada o'rganilmaganligi sababli ushbu masala bundan buyon xali ilmiy tadqiqotlar olib borilish davom ettirilishiga muhtojligidan dalolat beradi.

**Xulosa.** Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligining yeterli darajada yuqori emasligi ko'p omilli xususiyatlarga ega bo'lib, mavjud adabiyotlar ushbu mavzuning mazmun – mohiyatini to'liq ochib bera olmaydi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligining yeterli darajada yuqori emasligining ayrim sabablarini yuqoridagi uslubiy ko'rsatmalarga amal qilinishi maqsadga muvofiq. Umuman olganda ushbu jarayon ko'p omilli xususiyatga ega bo'lib, murabbiy va sportchilardan esa doimiy ijodiy izlanishlari asosida samarali mashg'ulotlarni olib borishlari, yuqori sport natijalariga erishishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Salamov R.S. "Sport mashg'ulotlarining nazariy asoslari". 2 jild. Darslik. ITA-PRESS. T. 2015. 181 b.
2. Курамшин Ю.Ф. Теория и методика физической культуры. Учебник. Москва. – 2010 г.
3. Ruzioksanova M.M., Sharipov A. The structure and content of the pedagogical practice of future specialists in physical culture and sport.// " Academician of the lyceum and problems of physical development in vocational colleges "Scientific-practical anzhu of the subject republic. Andijan, 2003. - P..

**Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar.** Xalqaro miqiyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

4. Seleznev A.I. Research on the methodology of preparing students of physical education faculties for teaching practice at school in the gymnastics section: Abstract of the thesis. dis. ...cand. ped. the science. M., 1978. - 17 p.

5. Stepanova G.A., Bulatova G.A., Rimazov R.M. Professional non-pedagogical training of future specialists in physical culture and health improvement of school children. // Theory and practice of physical culture. - 2003. - N 4. - S. 60-